



Kreativ yondashuv asosida talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishning metodologik asoslari

Ochildiyeva Yulduz Normengliyevna –

Farg'ona davlat universiteti

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

E-mail: Yulduzochildiyeva@yahoo.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-8861-8836>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda kreativ yondashuvning ahamiyati va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash jarayonida an'anaviy usullardan kreativ metodlarga o'tish zaruriyati asoslantirilgan. Maqolada metodik kompetentlikning tarkibiy qismlari, kreativ yondashuvning nazariy-metodologik bazasi hamda ularni amalda qo'llashning samarali yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari va pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishda kreativ metodlarning afzalliklarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kreativ yondashuv, metodik kompetentlik, talabalar, pedagogik faoliyat, innovatsion metodlar, ijodiy fikrlash, professional tayyorgarlik.

Методологические основы развития методической компетентности студентов на основе креативного подхода

Аннотация. В данной статье исследованы значение и методологические основы креативного подхода в развитии методической компетентности студентов. Обоснована необходимость перехода от традиционных методов к креативным методам в процессе подготовки педагогических кадров в современной системе образования. В статье проанализированы структурные компоненты методической компетентности, теоретико-методологическая база креативного подхода, а также эффективные пути их практического применения. Результаты исследования показывают преимущества креативных методов в развитии у студентов способности к творческому мышлению, навыков самостоятельного принятия решений и инновационного подхода к педагогической деятельности.

Ключевые слова: креативный подход, методическая компетентность,

студенты, педагогическая деятельность, инновационные методы, творческое мышление, профессиональная подготовка.

Methodological foundations for developing students' methodological competence based on a creative approach

Annotation. *This article examines the importance and methodological foundations of a creative approach in developing students' methodological competence. The necessity of transitioning from traditional methods to creative methods in the process of training teaching staff within the modern education system is substantiated. The article analyzes the structural components of methodological competence, the theoretical and methodological basis of the creative approach, and effective ways of applying them in practice. The research findings demonstrate the advantages of creative methods in developing students' creative thinking abilities, independent decision-making skills, and innovative approaches to pedagogical activity.*

Keywords: *creative approach, methodological competence, students, pedagogical activity, innovative methods, creative thinking, professional training.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi va jamiyatning pedagogik kadrlarga bo'lgan talablari o'qituvchilarning metodik kompetentligini shakllantirish metodologiyasini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda talabalarning faqat nazariy bilimga ega bo'lishi kifoya emas, ular o'z pedagogik faoliyatida kreativ yondashuvlarni qo'llay olish, noan'anaviy vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qila bilish kompetentsiyalariga ega bo'lishlari zarur.

Metodik kompetentlik – bu o'qituvchining o'z faoliyatini samarali tashkil etish, o'quv jarayonini rejalashtirish, maqsadga muvofiq metodlarni tanlash va qo'llash qobiliyatidir. Ushbu kompetentlikni rivojlantirishda kreativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u talabalarning ijodiy potentsialini ochib beradi va ularni pedagogik muammolarni noan'anaviy yo'llar bilan hal qilishga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Metodik kompetentlik muammosi va uni rivojlantirish yo'llari bir qator yirik olimlar tomonidan o'rganilgan. V.A.Slastyonin pedagogik faoliyatning kompetentlik asoslarini ishlab chiqishda muhim hissa qo'shgan va metodik kompetentlikni o'qituvchining professional mahoratining ajralmas qismi sifatida ta'riflagan. A.K.Markova o'qituvchining professional kompetentligini tahlil qilar ekan, metodik kompetentlikni uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ajratib ko'rsatgan. Uning fikriga ko'ra, metodik kompetentlik o'qituvchining pedagogik vazifalarni hal qilishda turli metodlarni maqsadga muvofiq tanlash va qo'llash qobiliyatini anglatadi. I.A.Zimnyaya kompetentlik yondashuvini chuqur tadqiq etgan va kompetentlikni bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarining uyg'unlashuvidan iborat murakkab tuzilma sifatida ko'rib chiqqan. Uning konsepsiyasi metodik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Kreativ yondashuv masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida J.Guilford va E.P.Torrensning ishlarini alohida ta'kidlash zarur. Ular ijodiy fikrlashning psixologik mexanizmlarini ochib bergan va kreativlikni rivojlantirishning amaliy usullarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shganlar. O'zbek olimlari, jumladan, Sh.E.Qurbonov, N.A.Muslimov, R.X.Juraev va boshqalar milliy ta'lim tizimida o'qituvchi kadrlarni

tayyorlash, ularning professional kompetentligini oshirish masalalarini chuqur o'rganganlar. Ammo metodik kompetentlikni rivojlantirishda kreativ yondashuvning metodologik asoslarini kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar kam.

Ushbu maqolada metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Sistemali yondashuv – metodik kompetentlikni o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit sistema sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu yondashuv asosida kompetentlikning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro ta'siri va rivojlanish dinamikasi o'rganildi.

Faoliyatli yondashuv – talabalarning metodik kompetentligini amaliy faoliyat jarayonida shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yordam berdi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir talabaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olishga asoslangan. Bu yondashuv talabalarning ijodiy potentsialini maksimal darajada ro'yobga chiqarishga imkon yaratdi.

Kreativ yondashuv – noan'anaviy fikrlash, muammolarni yangicha ko'ra bilish va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Metodik kompetentlikning tarkibiy qismlari

Kognitiv komponent – pedagogika, psixologiya, metodika sohalarida puxta nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi. Bu komponent o'qituvchiga ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tushunish, o'quv materialini to'g'ri tuzilmalash va o'quvchilarga samarali yetkazish imkonini beradi. Kognitiv komponentning rivojlanganligi o'qituvchining metodlarni ongli ravishda tanlashi va qo'llashini ta'minlaydi.

Amaliy-faoliyat komponenti – nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, turli o'qitish metodlarini qo'llay bilish ko'nikmalarini bildiradi. Bu komponent dars rejalashtirish, didaktik materiallar tayyorlash, o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va baholash malakalarini qamrab oladi. Amaliy ko'nikmalarning shakllanganligi o'qituvchining pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omildir.

Kreativ-ijodiy komponent – pedagogik vaziyatlarda noan'anaviy yechimlar topish, yangi metodlarni yaratish va qo'llash qobiliyatidir. Bu komponent o'qituvchiga pedagogik faoliyatni monotonlikdan xalos qilish, har bir darsni o'ziga xos va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ijodiy yondashuv tufayli o'qituvchi o'z faoliyatini doimo takomillashtiradi va rivojlantiradi.

Refleksiv-tahliliy komponent – o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish yo'llarini topish qobiliyatidir. Refleksiya o'qituvchiga o'z metodlarining samaradorligini baholash, zaif tomonlarni aniqlash va professional o'sishga erishish imkonini yaratadi.

Shaxsiy-motivatsion komponent – pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, o'z-o'zini takomillashtirish istagi, pedagogik qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyorlik kabi shaxsiy fazilatlarni o'z ichiga oladi. Kreativ yondashuv talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Muammolilik tamoyili – talabalar oldiga muammoli vaziyatlar qo'yish orqali ularning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish. Muammoli vaziyatlar talabalarni tayyorgina javoblar izlashdan uzoqlashtiradi va ularni chuqur tahlil qilish, turli echimlarni solishtirish va eng maqbulini tanlashga undaydi. Variantlilik tamoyili – bitta pedagogik vaziyat uchun bir nechta yechim yo'llarini ko'rib chiqish va taqqoslash. Bu tamoyil talabalarni dogmatik fikrlashdan xalos qiladi va ularning fikr doirasini kengaytiradi. Erkinlik va mustaqillik tamoyili – talabalarga o'z fikrini erkin bildirish, mustaqil qaror qabul qilish va javobgarlikni o'z zimmasiga olish imkoniyatini berish. Bu talabalarning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi va ularni faol pedagogik faoliyatga

tayyorlaydi. Shaxsiy tajribaga tayanish tamoyili – talabalarning o‘z hayotiy va o‘quv tajribasidan foydalanish, ularning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish. Hamkorlik va o‘zaro ta’sir tamoyili – talabalar o‘rtasida hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish, guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagogik faoliyat tabiatan jamoaviy xarakterga ega bo‘lganligi uchun hamkorlik qilish malakasi o‘qituvchi uchun zarurdir.

Talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda quyidagi kreativ metodlar samarali hisoblanadi;

Aqliy hujum (brainstorming) metodi – pedagogik muammolarni hal qilishda turli g‘oyalarni erkin bildirish va ularni tanqidiy baholash orqali eng samarali yechimni topish. Bu metod talabalarning ijodiy fikrlashini faollashtiradi va qo‘rquv hissisiz o‘z fikrini bildirish muhitini yaratadi. Amaliyotda bu metod dars rejalashtirish, didaktik materiallar yaratish va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda qo‘llanildi. Pedagogik stsenariylar yaratish – talabalar turli pedagogik vaziyatlarning rivojlanish variantlarini yaratib, ularni tahlil qiladilar. Bu metod bashorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi va kutilmagan vaziyatlarga tayyorgarlikni oshiradi. Stsenariylar yaratish jarayonida talabalar o‘quvchilarning turli xil reaksiyalarini, ularning xatti-harakatlarining sabablarini o‘rganib, mos pedagogik strategiyalarni ishlab chiqadilar. Metodik portfel (portfolio) metodi – talabalar o‘zlarining eng yaxshi metodik ishlanmalarini to‘playdilar va ularni takomillashtirib boradilar. Bu metod refleksiya qobiliyatini rivojlantiradi va talabalarning professional o‘rishini nazorat qilish imkonini beradi. Portfolio talabalarga o‘z rivojlanish yo‘lini ko‘rish va quvonch his qilish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik kvadrat (case-study) metodi – real pedagogik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish va ular uchun eng maqbul yechimlarni topish. Bu metod nazariya va amaliyot o‘rtasidagi ko‘prikn yaratadi, talabalarni real pedagogik muammolarga tayyorlaydi. Case-study ishlash jarayonida talabalar tahliliy fikrlash, turli omillarni hisobga olish va kompleks qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Roli o‘ynash (role-playing) metodi – turli pedagogik rollarni o‘ynash orqali o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlarini tushunish va samarali pedagogik kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bu metod empatiya qobiliyatini oshiradi va talabalarni turli nuqtai nazarlardan vaziyatni ko‘rishga o‘rgatadi. Pedagogik loyihalar metodi – talabalar guruhlarda yoki individual ravishda metodik loyihalar ustida ishlaydilar (masalan, muayyan mavzu bo‘yicha darslar tizimini ishlab chiqish, o‘quv qo‘llanma yaratish). Bu metod murakkab pedagogik vazifalarni hal qilish tajribasini beradi va mustaqil ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishning bosqichlari

Kreativ yondashuv kontekstida talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishning quyidagi bosqichlari :

Motivatsion-tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda talabalarni kreativ pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularda metodik kompetentlikni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojni shakllantirish amalga oshiriladi. Talabalar kreativ yondashuvning mohiyati, ahamiyati va imkoniyatlari bilan tanishtiriladi. Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- ✓ Talabalarda pedagogik kreativlikka bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish
- ✓ Kreativ yondashuvning zarurligini anglatish
- ✓ O‘z ijodiy potentsialiga ishonchni mustahkamlash
- ✓ Ijodiy fikrlash uchun qulay psixologik muhit yaratish

Bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichi. Bu bosqichda talabalar metodik bilimlarni o‘zlashtirishadi va kreativ metodlarni qo‘llash ko‘nikmalarini egallaydilar. Nazariy bilimlar amaliy mashqlar bilan uzviy bog‘lanadi. Darslar davomida turli kreativ

metodlar (aqliy hujum, pedagogik stsenariylar, case-study va boshqalar) faol qo'llaniladi. Talabalar:

- ✓ Metodik bilimlarni sistematik egallaydilar
- ✓ Kreativ metodlarni amalda sinab ko'radilar
- ✓ Guruh ishlarida faol ishtirok etadilar
- ✓ Birinchi pedagogik loyihalarni amalga oshiradilar

Amaliy-kreativ faoliyat bosqichi. Bu bosqichda talabalar o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda mustaqil qo'llaydilar. Pedagogik amaliyot davomida talabalar real ta'lim muhitida o'z metodik kompetentliklarini namoyon etadilar va rivojlantiradilar. Ular:

- Mustaqil darslar rejalashtiradilar va o'tkazadilar
- Turli pedagogik vaziyatlarda kreativ yechimlar topadilar
- O'z metodik ishlanmalarini yaratadilar va amaliyotda sinab ko'radilar
- Tajribali o'qituvchilar bilan hamkorlik qiladilar

Refleksiv-takomillashtirish bosqichi. Ushbu bosqichda talabalar o'z pedagogik faoliyatini chuqur tahlil qiladilar, erishgan yutuqlari va kamchiliklarini baholaydilar, keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydilar. Refleksiya metodik kompetentlikning doimiy o'sishining asosiy mexanizmi hisoblanadi. Talabalar:

- O'z pedagogik tajribasini tanqidiy tahlil qiladilar
- Xatolardan saboq chiqaradilar va ularni tuzatish yo'llarini topadilar
- Professional o'sish rejalarini tuzadilar
- Pedagogik tadqiqotlar olib boradilar va ularning natijalarini umumlashtiradilar

XULOSA

Kreativ yondashuv talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy va samarali strategiyasi bo'lib, u pedagogik ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish va yangi avlod o'qituvchilarni professional tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Kreativ yondashuv asosida metodik kompetentlikning yuqori darajada shakllanishi ta'lim sifatini oshirish bilan birga, talabalarning mustaqil fikrlash hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishiga ham bevosita hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Slastyonin V.A. Pedagogika: Uchebnoye posobiye. – M.: Akademiya, 2018. – 576 s.
2. Markova A.K. Psixologiya truda uchitelya. – M.: Prosvesheniye, 2019. – 342 s.
3. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetentsii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya // Vysheye obrazovaniye segodnya. – 2017. – №5. – S. 34-42.
4. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 2020. – 538 p.
5. Torrance E.P. The Torrance Tests of Creative Thinking. – Bensenville: Scholastic Testing Service, 2018. – 245 p.
6. Qurbonov Sh.E. Pedagogik ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2020. – 288 b.
7. Muslimov N.A. O'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 256 b.
8. Ochildiyeva Y. Kreativ yondashuv asosida talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Scientific approach to the modern education system. FRANCE international scientific –online conference. 2025.7-12